



## Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 935 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 78 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 857 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 9 767,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 21,6 % ga oshdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 438,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 169,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 329,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 120,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 079,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 137,4 %) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)





### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 668 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 634 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 012,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 12,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 671,9 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 94,3 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Shovot (31,3 m.), Urganch (3,1 m.), Qo'shko'pir (2,6 m.) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)




### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 692 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 682 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 7 266,8 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 80,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)





#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

|                                                                                 |                                                     |                                                                                                                          |                                                                |
|---------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|
| <b>Chop etishga masul:</b><br>Xizmatlar va savdo sohasi<br>statistikasi bo'limi | <b>Bo'lim boshlig'i:</b><br>M.Egamov<br>Tel: (9090) | <b>Ijrochi:</b> R.Buxarbayev<br>Tel: (9040)<br>e-pochta:<br><a href="mailto:savdo@xorazmstat.uz">savdo@xorazmstat.uz</a> | <b>Manzil:</b> 220100, Urganch sh.,<br>Al-Xorazmiy ko'chasi,93 |
|---------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|